



NAVOIYNING “SABBAI SAYYOR” DOSTONIDAGI AXLOQIY G’OYALAR VA HAYOT SABOQLARI

*Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti
(o'zbek tili yo'nalishi) 3-bosqich talabasi*

Jalilova Shohida

ANNOTATSIYA: *Alisher Navoiyning “Sabbai Sayyor” dostoni “Xamsa” turkimiga kiruvchi yuksak badiiy saviyada yozilgan asarlaridan biridir. Asar nomi fors tilidan tarjima qilinganda “Yeti Sayyora” degan ma’noni anglatadi.*

Ushabu doston 1481-yilda yozilgan bo’lib, unda asosan yetti kun ichida yetti sayyora saroyida kechgan yetti voqea tasvirlanadi. Har bir sayyora – Muxtalit sayyoralar (oy, zuhra, mushtariy, zuhal) ramziy ma’noga ega bo’lib, ularning har birida bir voqea yoki hikoya tilga olinadi.

KALIT SO’ZLAR: *Alisher Navoiy, Sab’ayi sayyor, Bahrom Go’r, ramziy obraz, sayyora, doston, tasavvufiy ma’no.*

АННОТАЦИЯ: *Эпическая поэма Алишера Навои «Саббай Сайёр» является одним из произведений высокого художественного уровня, которое относится к жанру «Хамса». Название произведения в переводе с персидского означает «Семь планет».*

Эта эпическая поэма была написана в 1481 году, и в ней в основном описываются семь событий, которые произошли во дворце семи планет в течение семи дней. Каждая планета - различные планеты (Луна, Венера, Юпитер, Сатурн) имеет символическое значение, и каждая из них рассказывает историю или историю.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Алишер Навои, Саббай Сайёр, Бахром Го’р, символический образ, планета, эпос, мистическое значение.*



ANNOTATION: *Alisher Navoi's epic poem "Sabbai Sayyor" is one of the works of high artistic level, which belongs to the "Khamsa" genre. The name of the work, translated from Persian, means "Seven Planets".*

This epic poem was written in 1481, and it mainly describes seven events that took place in the palace of seven planets within seven days. Each planet - the various planets (Moon, Venus, Jupiter, Saturn) has a symbolic meaning, and each of them tells a story or story.

KEYWORDS: *Alisher Navoi, Saba'ayi Sayyor, Bahrom Go'r, symbolic image, planet, epic, mystical meaning.*

KIRISH

Navoiy - o'zbek adabiyotining sultoni , buyuk mutafakkir va mohir so'z ustasi sifatida sharq madaniyatida o'lmas iz qoldirgan siymodir.. Uning "Xamsa" turkumiga kiruvchi besh dostoni orasida "Sab'ai Sayyor" alohida o'rin tutadi. Bu asar o'zining badiiy qurilishi, ramziy obrazlari va falsafiy teran mazmuni bilan insonni nafaqat zavqqa cho'mdiradi, balki hayotiy haqiqatlar, axloqiy saboqlar va insoniy fazilatlar haqida chuqur o'yantiradi.

"Sab'ai Sayyor" dostoni orqali Navoiy nafaqat go'zallik va muhabbatni madh etadi, balki har bir inson o'z ma'naviy kamolot yo'lida qanday sinovlardan o'tish lozimligi ham ko'rsatib beradi.

Asarda podsho Bahrom Go'ring sayohatlari, ruhiy kamolot sari yo'l, hikmat va saboqqa to'la voqealar bayon etilgan.

Har bir hikoya orqalininson axloqi, mehr- muhabbat,adolat, sabr, donishmandlik kabi mavzular yoritildi.

Doston sharq adabiyotining an'anaviy "har kun-har saroy-har hikoya" usulida yozilgan bo'lib, o'zbek mumtoz adabiyotida noyob siymolardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Navoiy asarda Bahrom Go'r obrazida jamlagan ramziy safar- bu har bir insonning ichki olamiga , ruhiy o'sish sari bo'lgan sayohatining badiiy ifodasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI



Alisher Navoiy “Sab’ai Sayyor” dostoni – nafaqat o’zbek mumtoz adabiyotining durdonasi balki sharq falsafasi tasavvufi tafakkur va go’zallik timsoli sifatida ham beqiyos asardir.

Asarning asosiy tuzilmasi- yetti sayyora, yetti saroy va u yerdagi yetti voqealarning tasvirida mujassam.

Ammo bu yettilik sari bosqichma-bosqich yo’l Bahrom Go’rning har bir sayyoraga yo’li tushib, turlin sayyorada turli hikoya tinglashi – bu aslida har bir insonning qalb safaridir.

Asarda hikoya qilinayotgan har bir voqea – axloqiy bir saboq, hayotiy bir haqiqat. Mehr, shavqat, sabr, donishmandlik, adolat, g’urur va gunoh kabi mavzular turli syujetlar orqali yoritiladi.

Ayniqsa Navoiy har bir hikoyaga badiiy nafosat va musiqiy ohang bag’ishlab uni tasviriy san’at darajasiga olib chiqadi.

Asardagi har bir obraz – timsol, har bir diolog obraz , har bir holat haqiqatdan yasalgan ramzdir.

Dostonda Navoiy Bahrom Go’r obrazini abadiy shoh emas, u ham bir insonni timsolovchi , hayot maktabidan o’tayotgan ruhhiy sayyoh qilib tasvirilaydi. U ham bir hikoya orqali o’ziga saboq oladi, kamolot sari bir qadam yaqinlashadi. Asardagi ayollar, donishmandlar, oshiq-ma’shuq obrazlari orqali Navoiyning hayotga, insoniyatga va ilohiy haqiqatga munoabati aks etadi.

MUHOKAMA

Navoiyning “Sabbai Sayyor” dostoni bunafaqat badiiy asar, balki inson qalbining ichki olamida kechadigane ziddiyatlar, izlanishlar va orzular manzarasidir.

syujeti Bahrom Go’rning yetti sayyoraga sayohati orqali rivojlanadi, ammo bu tashqi safar ortida katta ma’naviy yo’l yotadi. Bu insonning o’rnini anglash, haqiqatni izlash va komillikka intilish yo’lidir. Har bir sayyorada aytilgan hikoyalardan turli xil syujetlar ega bo’lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy g’oya- bu insonning fazilatlarini, axloqiy tomonlari va ruxiy yetakchiligidir. Muhabbat, fidoiylilik, sabr, dono so’z, halollik va yovuzlik kabi tushunchalar turli obrazlar orqali ramziy ifodalanadi.



Ayniqsa, hikoyada ayol obrazlari kuchli ma'naviy yo'l ko'taradi. Ular nafaqat go'zallik timsoli, balki donolik va sabr namunasi sifatida ham talqin e'tiladi.

Navoiy bu shoh asaridir. Bahrom Go'r abadiy shoh emas, odamzodning o'zigaxos timsoli etib tasvirlaydi. Uning sayohati har bir insonning hayotiy safarining badiy ifodasidir. U hikoyalardan saboq olib boradi, anglaydi, to'g'ri yo'lni tanlaydi. Bu jarayon orqali Navoiy hayotidagi har bir voqeaning ostida bir dars, bir haqiqat borligini eslatadi.

XULOSA

Sabbai Sayyor" dostoni bizni shunchaki o'tmishga emas, o'zimizga qarashga chorlaydi. Bu asar bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Unda aytilgan haqiqatlar, qilingan tanqidlar, berilgan saboqlar zamonaviy inson uchun uchun ham muhim.

Doston insonni nafaqat zavqlantiradi, balki tarbiyalaydi, qalbini uyg'otadi. Har bir hikoya – bu hayot oynasi. Unda ko'rganingiz o'zingiz. Shu bois "Sabbai Sayyor" faqat mumtoz adabiyot durdonasi emas, balki har bir zamondosh uchun, hayot yo'lida yo'lchi yulduz bo'la oladigan bebaho asardir.

FOYDALANILGFAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Sabbai Sayyor. Mukammal asarlar to'plami. 20-jildlik, Toshkent 1992
2. Sirojiddinova S, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoshlik.
3. Sul-tonmurod Olim. "Navoiy – yoshlariga" Toshkent 2008.
4. Hasanov S. "Navoiyning yetti tuh-fasi". Toshkent. Adabiyot va san'ati 1991.